XORAZM VILOYATI TUPROQQAL’A TUMANI HOKIMINING
QARORI

2025-yil 29-yanvar 23-12-218-Q/25 Tuproqqal’a tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 11-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi PF-1-sonli Farmonining ijrosi haqida,hamda Xorazm viloyati hokimining 2025-yil 17-yanvardagi 23-12-0-Q/25-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 11-yanvardagi “ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi PF-1-sonli Farmonining ijrosi haqida,hamda Xorazm viloyati hokimining 2025-yil 17-yanvardagi 23-12-0-Q/25-sonli qarorining ijrosini ta’minlash maqsadida

Qaror qilaman:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 11-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi PF-1-sonli Farmonining ijrosi haqida,hamda Xorazm viloyati hokimining 2025-yil 17-yanvardagi 23-12-0-Q/25-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoni bilan:

Bolalarni sog‘lomlashtirish va aholi salomatligini tiklashga ko‘maklashish jamg‘armasiga 2025- 2026-yillarda ajratish nazarda tutilgan mablag‘larning bir qismini 2023- yil yoz mavsumida dam olgan bolalarning yo‘llanma xarajatlari hamda 2024-yil yoz mavsumida 59 ta oromgohni tayyorlash maqsadida olib borilgan ta’mirlash ishlari bo‘yicha vujudga kelgan qarzdorlikni qoplash uchun yo‘naltirishga ruxsat berilganligi;

Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining bo‘ysunuvi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligidan Vazirlar Mahkamasiga. o‘tkazilganligi munosabati bilan qonunchilik hujjatlari o‘zaro muvofiqlashtirilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tumandagi tegishli idora va tashkilotlar o‘zlari qabul qilgan hujjatlarni ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari-oila va xotin-qizlar bo‘limi boshlig‘i M.Aminova zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **A.Jimalyazov**